XALQARO NORDIK UNIVERSITETI REKTORINING
BUYRUG’I

2026-yil “___” noyabr №_____ Toshkent shahri

Izlanuvchilarni o‘qishga qabul qilish, ko‘chirish, qayta tiklash, chetlashtirish va o‘qish muddatini uzaytirish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta’limdan keyingi ta’lim to‘g‘risidagi Nizom talablarini Xalqaro Nordik universitetida (keyingi o‘rinlarda – Universitet) bir xilda qo‘llash, stajyor-tadqiqotchilar, tayanch doktorantlar, doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar harakati bilan bog‘liq jarayonlarni shaffof tashkil etish hamda izlanuvchilarni ular haqida o‘z vaqtida xabardor qilish maqsadida

BUYURAMAN:

1. “Izlanuvchilarni o‘qishga qabul qilish, ko‘chirish, qayta tiklash, chetlashtirish va o‘qish muddatini uzaytirish tartibi” ilovaga muvofiq tasdiqlansin va ushbu buyruq imzolangan kundan e’tiboran joriy etilsin.

2. Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti boshlig‘i F. Irisqulovga:

– tartibni izlanuvchilar, ilmiy rahbarlar va ixtisoslik kafedralari mudirlariga 10 ish kuni ichida yetkazish;

– izlanuvchilar harakati bo‘yicha Kengash qarorlari va rektor buyruqlari loyihalarini ushbu tartibda belgilangan muddatlarda tayyorlash, qabul qilingan buyruqlarni Oliy ta’limdan keyingi ta’limni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimiga (daraja.ilmiy.uz) va HEMIS OTM ga o‘z vaqtida kiritish;

– “XNU tadqiqotchilari” Telegram kanalida tartib va unga oid e’lonlarni joylash vazifalari yuklatilsin.

3. IT departamenti boshlig‘i X. Topilovga tartibni Universitet rasmiy veb-saytining “Doktorantura” sahifasida va repozitoriyning “Doktorantura: monitoring va hisobotlar” bo‘limida 3 ish kuni ichida e’lon qilish, ularni “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim bo‘yicha veb-sayt va axborot tizimida ochiq e’lon qilingan materiallar reyestri”ga kiritish vazifasi yuklatilsin.

4. Ixtisoslik kafedralari mudirlari va ilmiy rahbarlar izlanuvchilarni tartib bilan tanishtirsin va kafedra majlisida muhokama qilsin.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor O. Qo‘ysinov zimmasiga yuklatilsin.

Rektor **Sh.Mustafakulov**

KIRITILDI:

Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar
departamenti boshlig‘i
F. Irisqulov

KELISHILDI:

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo‘yicha prorektor
O. Qo‘ysinov

IT departamenti boshlig‘i
X. Topilov

Ilova
Xalqaro Nordik universiteti rektorining
2026-yil “___” noyabrdagi ___-son buyrug‘iga

IZLANUVCHILARNI O‘QISHGA QABUL QILISH, KO‘CHIRISH, QAYTA TIKLASH, CHETLASHTIRISH VA O‘QISH MUDDATINI UZAYTIRISH TARTIBI

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur tartib Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta’limdan keyingi ta’lim to‘g‘risidagi Nizom (keyingi o‘rinlarda – Nizom) asosida Universitetda stajyor-tadqiqotchilar, tayanch doktorantlar, doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarni (keyingi o‘rinlarda – izlanuvchilar) o‘qishga qabul qilish, ko‘chirish, qayta tiklash, chetlashtirish va o‘qish muddatini uzaytirish (keyingi o‘rinlarda – izlanuvchilar harakati) jarayonlarini, mas’ullarni, muddatlarni va izlanuvchilarni xabardor qilish tartibini belgilaydi.

2. Izlanuvchilar harakati bo‘yicha qarorlarni Nizomdagi Kollegial organ sifatida Universitet Kengashi (keyingi o‘rinlarda – Kengash) qabul qiladi, ular rektor buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi. Hujjatlarni tayyorlash, hisobini yuritish va axborot tizimlariga kiritishni Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti (keyingi o‘rinlarda – Departament) tashkil etadi.

3. Izlanuvchilar harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlar Oliy ta’limdan keyingi ta’limni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimida (daraja.ilmiy.uz, keyingi o‘rinlarda – Yagona elektron tizim) va HEMIS OTM ning “Doktorantura” bo‘limida yuritiladi.

II. O‘QISHGA QABUL QILISH

4. Stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturaga qabul Nizomning 13–27-bandlariga muvofiq, tasdiqlangan qabul kvotasi doirasida amalga oshiriladi:

– Departament har yili 1-sentabrdan kechiktirmay qabul e’lonini (hujjat qabul qilish muddati, talab qilinadigan hujjatlar, imtihonlar ro‘yxati, qabul kvotasi) veb-saytda va Telegram kanalida e’lon qiladi;

– hujjatlar 15-sentabrdan 15-oktabrgacha Yagona elektron tizim yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali qabul qilinadi;

– rektor raisligida tuzilgan qabul komissiyasi 1–25-noyabr kunlari tayanch doktoranturaga kirish imtihonlarini va doktoranturaga suhbatni o‘tkazadi, natijalarni bayonnoma bilan rasmiylashtirib, 5 kun ichida Kengashga kiritadi;

– Kengash qabul qilinganlarni va ularning dissertatsiya mavzularini tasdiqlaydi, o‘qishga qabul ilmiy rahbarlar ko‘rsatilgan rektor buyrug‘i bilan har yili 5-dekabrgacha rasmiylashtiriladi.

5. Mustaqil izlanuvchilikka hujjatlar Nizomning 38–49-bandlariga muvofiq yil davomida qabul qilinadi. Talabgorlar har chorakning uchinchi oyigacha qabul komissiyasida ixtisoslik bo‘yicha suhbatdan o‘tadi, suhbat natijalari va dissertatsiya mavzulari Kengash qarori bilan tasdiqlanadi, talabgorlar rektorning 5-mart, 5-iyun, 5-sentabr va 5-dekabrgacha chiqariladigan buyrug‘i bilan mustaqil izlanuvchilikka rasmiylashtiriladi.

6. Qabul to‘g‘risidagi buyruq qabul qilingandan keyin 5 kun ichida Yagona elektron tizimga va HEMIS OTM ga kiritiladi. Izlanuvchining yakka tartibdagi rejasi qabul qilingandan keyin bir oy ichida Kengash qarori bilan tasdiqlanadi.

III. KO‘CHIRISH

7. Nizomning 32-bandiga muvofiq izlanuvchilarni bir ilmiy yoki ta’lim tashkilotidan boshqasiga ko‘chirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Tugatilgan ilmiy yoki ta’lim tashkilotidan o‘qishni davom ettirish uchun o‘tkazish faqat qonunchilikda belgilangan huquqiy vorislik tartibida amalga oshiriladi.

8. Universitet ichida quyidagi o‘zgarishlar Kengash qarori va rektor buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi:

– tayanch doktoranturadan yoki doktoranturadan monitoring natijalari bo‘yicha chetlatilgan yoki dissertatsiyasini muddatida himoya qilmagan shaxsni dissertatsiyani tugatish va himoya qilish davrida mustaqil izlanuvchi sifatida rasmiylashtirish (Nizomning 55-bandi);

– ilmiy rahbarni yoki ilmiy konsultantni almashtirish, dissertatsiya mavzusini o‘zgartirish – izlanuvchining arizasi, ilmiy rahbar va kafedra xulosasi asosida.

IV. O‘QISH MUDDATINI UZAYTIRISH

9. Nizomning 32-bandiga muvofiq stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturada o‘qish muddati uzoq vaqt kasal bo‘lish, homiladorlik va tug‘ish ta’tilida bo‘lish davriga, shuningdek harbiy yig‘inlarga chaqirilish munosabati bilan uzaytirilishi mumkin.

10. Izlanuvchi asos bo‘ladigan hujjat bilan ariza beradi. Departament arizani ilmiy rahbar va kafedra xulosasi bilan 10 ish kuni ichida Kengashga kiritadi. Kengash qarori asosida o‘qish muddatini uzaytirish rektor buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi, buyruq 5 kun ichida Yagona elektron tizimga kiritiladi, izlanuvchining yakka tartibdagi rejasiga tegishli o‘zgartirish kiritiladi.

V. CHETLASHTIRISH

11. Izlanuvchilar Nizomning 55-bandida belgilangan quyidagi asoslarga ko‘ra chetlashtiriladi:

– o‘z arizasiga muvofiq;

– salomatligi tufayli (tibbiy komissiya ma’lumotnomasi asosida);

– yakka tartibdagi rejasini bajarmaganda;

– Universitet ichki tartib-qoidalarini tizimli (uch yoki undan ortiq marta) buzganda;

– sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum qilinganda;

– hisobotlarni belgilangan muddatda taqdim etmaganda;

– dissertatsiyani tayyorlash va himoya qilish talabini buzganda.

12. Monitoring natijalari bo‘yicha chetlashtirishdan oldin izlanuvchiga nisbatan bosqichma-bosqich choralar qo‘llaniladi: ogohlantirish, qat’iy ogohlantirish, hayfsan, ilmiy rahbar va kafedraga topshiriq, tayanch doktorantlar uchun stipendiyani to‘xtatish. Monitoringda surunkali (ikki va undan ortiq marta) qatnashmagan yoki yakka tartibdagi rejasini bajarmagan izlanuvchini chetlashtirish masalasi choraklik monitoring natijalari bilan birga Kengashda ko‘riladi.

13. Kengash qarori asosida chetlashtirish to‘g‘risidagi rektor buyrug‘i qaror qabul qilingan kundan keyin 5 ish kuni ichida chiqariladi va 5 kun ichida Yagona elektron tizimga va HEMIS OTM ga kiritiladi. O‘z arizasiga ko‘ra chetlashtirish Kengashga axborot berilgan holda rektor buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

14. Nizomning 55-bandiga muvofiq yakka tartibdagi rejasini bajarmagan izlanuvchilarning ilmiy rahbarlari va konsultantlariga to‘lanadigan haq Kengash qarori bilan to‘xtatiladi va ular bir yil muddatga ilmiy rahbarlikdan chetlashtiriladi.

VI. QAYTA TIKLASH

15. Nizomning 55-bandiga muvofiq yakka tartibdagi rejasini bajarmagani yoki ichki tartib-qoidalarni buzgani uchun chetlatilgan shaxslar o‘qishga qayta tiklanmaydi. Nizomning 37-bandiga muvofiq oliy ta’limdan keyingi ta’limni tugatganlar tayanch doktorantura yoki doktoranturaga qayta qabul qilinmaydi.

16. O‘z arizasi bilan yoki salomatligi tufayli chetlashtirilgan shaxs mustaqil izlanuvchilikka ushbu tartibning 5-bandida belgilangan umumiy tartibda qayta rasmiylashtirilishi mumkin. Bunda avval tasdiqlangan dissertatsiya mavzusi va bajarilgan ishlar Kengash tomonidan inobatga olinishi mumkin.

VII. IZLANUVCHILARNI XABARDOR QILISH

17. Izlanuvchilar harakatiga oid qoidalar va jarayonlar haqida quyidagi kanallar orqali xabardor qilinadi:

– Universitet rasmiy veb-saytining “Doktorantura” sahifasi – mazkur tartib, qabul e’lonlari, qabul kvotasi, ixtisosliklar;

– “XNU tadqiqotchilari” Telegram kanali (t.me/xnuilmiy) – qabul e’lonlari, hujjat topshirish bo‘yicha qo‘llanmalar, monitoring jadvali va natijalari;

– repozitoriyning “Doktorantura: monitoring va hisobotlar” bo‘limi – choraklik monitoring natijalari to‘g‘risidagi umumlashtirilgan hisobotlar;

– Yagona elektron tizimdagi izlanuvchining shaxsiy kabineti;

– korporativ elektron pochta, ilmiy rahbar va ixtisoslik kafedrasi.

18. Izlanuvchiga nisbatan qabul qilingan qaror (qabul, o‘qish muddatini uzaytirish, ogohlantirish, hayfsan, chetlashtirish) haqida Departament izlanuvchini va uning ilmiy rahbarini buyruq chiqqandan keyin 3 ish kuni ichida yozma yoki elektron shaklda xabardor qiladi. Izlanuvchining familiyasi ko‘rsatilgan qarorlar ochiq e’lon qilinmaydi, ochiq kanallarda natijalar umumlashtirilgan holda beriladi.

19. Izlanuvchi o‘ziga nisbatan qabul qilingan qarordan rozi bo‘lmasa, xabardor qilingan kundan keyin 10 ish kuni ichida Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektorga yozma murojaat qilishi mumkin, murojaat Kengashning navbatdagi yig‘ilishida ko‘rib chiqiladi.

VIII. MAS’ULLAR VA HISOB

20. Departament izlanuvchilar harakati bo‘yicha qarorlar va buyruqlar hisobini (Tadqiqotchilar reyestri) yuritadi, uni har chorakda Yagona elektron tizim va HEMIS OTM ma’lumotlari bilan solishtiradi, natijalarni choraklik monitoring hisobotiga kiritadi.

21. Ixtisoslik kafedralari va ilmiy rahbarlar izlanuvchilarning yakka tartibdagi rejasi bajarilishini nazorat qiladi va harakatga asos bo‘ladigan holatlar haqida Departamentga 3

ish kuni ichida xabar beradi. IT departamenti tartib va unga oid materiallarni veb-saytda va repozitoriyda e’lon qilishni, havolalar ishlashini ta’minlaydi.

22. Mazkur tartibga o‘zgartirishlar Nizomga yoki qonunchilikka o‘zgartirish kiritilganda Departament taklifi bilan rektor buyrug‘i asosida kiritiladi.